



O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
“Tasviriyy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo’nalishi
III-bosqich “A” guruhi talabasi
Ro’ziyev Nuriddinning
Rangtasvir fanidan
“ Giyohvandlik va Salomatlik ”
Mavzusidagi

KURS ISHI



Ilmiy raxbar:

Ismanov X.

Andijon 2014 yil

Mavzu : Giyoxvandlik va salomatlik

R E J A :

I. KIRISH

II. Asosiy qism

1. Salomatlik va giyohvandlik haqida tushuncha

2. Giyohvandlik asr vabosi

3. Rang tasvir va uning rivojlanish tarixi kompozitsiya jarayoni

4. “Giyohvandlik va salomatlik” kompozitsiyasining tahlili

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar to'plami

**Xar qaysi inson Ollox taolo ato etgan noyob qobilyat va istedodini
avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt – saodati,
manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga
erishadiki, uning surat va samarasini tasavvur qilish xam oson emas.**

Islom Karimov

Kirish

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligini, fazandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va g'ayratimizni, imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'ulliyatimizni yo'qotsak, buo'ta muhim ishni o'z holiga, o'zbilarmonchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqddas qadiryatlarimizga yo'g'irilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umum bashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Bugungi kunda biz yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli va foydali maqsadlarda foydalanishimiz zarur. O'z tanlagan yo'limizdan faqat yurt kelajagi, ravnaqi yo'lida ishonch bilan odimlashimiz darkor. Yurtboshimizning biz yoshlar uchun qilayotgan g'amho'rliklari va ishonchiga biz ham munosib javob qaytarishimiz lozim. Buning uchun dastlab biz chuqur bilimlarni egallashimiz, buyuk va sharaflı tariximizni o'rganishimiz kerak. Vatan haqidagi tushunchalarimizni kengaytirib bu tuyg'u barcha tuyg'ular ichida boshqacha o'rin tutishi, vatanimiz har bir sarhati qanchalik aziz ekanligini anglashimiz lozim. Bu fazilatlarga bizni ma'naviyatimiz elitadi. Ma'naviyat esa bu bizni hayot mobaynida qilayotgan ezgu ish va faoliyatlarimizni boshlang'ich nuqtasi.

Bu dunyoga har bir inson pok va beozor, yaxshi insonlar ko'magiga umidvor holda keladi. Ularni dastlab mehribon onalarimiz mehrli og'ushiga oladilar. Bu mehrni boshqa hech kimdan topa olmaymiz. Ular bizni oq yuvib oq taraydilar. Bizni kundan kun kamol topishimizdan be'hat quvonadilar. Biz dastlabki ta'lim tarbiyani oiladan olamiz. Keyin bizni maktab o'zi tamon chorlaydi, bu yerda biz o'qish, yozishni o'rganamiz.

Biz asta ulg'ayib boramiz bu davrlarda bizga yo'limizda turli xil odamlar bizga sherik bo'ladi. Bu insonlar bizga faqat yaxshilikni ilinsa ularning borligidan quvonamiz. Yana shunday odamlar borki ularning maqsadi faqat sizning zavolingiz uning nopok orzu maqsadidir. Bugungi kunda jamiyatning yuksalishi uchun o'zini bor kuch va g'ayratini namoyon etmoqda. Ming afsuski o'zining g'arazli niyyalari yo'lida tinmay „mehnat“ qilayotganlar ham yo'q emas. Sir emaski hozirgi tehnik rivojlanishlar bilan bir qatorda giyohvandlik, diniy ekstrimizm, terorizm, alkogalizm, kashandalik va yana bir qancha illatlar ham „rivojlanmoqda“. Bu illatla asosan g'o'r va malakasiz yoshlar

„mehnatkashlar” tomonidan jalb qilinmoqda. Asr muammolari qatorida yechimsiz va kundan kunga xafli ko'rinish olayotgan illatlardan biri giyohvandlik haqida so'z yuritar ekanmiz bu muammoni kelib chiqishi, inson va jamiyatga yetkazayotgan talofatlariga atroflicha to'htalamiz.



1. Giyohvandlik va salomatlik haqida

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan giyohvandlik bilan bog'liq sodir etilayotgan jinoyat huquqbuzarliklar yildan-yilga ko'payib bormoqda. Binobarin ayrim mintaqalardagi ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, turli to'garaklarga jalb etish, mavjud sport maydonchalari va kutubhonalardan to'g'ri hamda unumli foydalanishga yetarli e'tibor berilmaganligi sababli o'quvchilar tomonidan sodir etilayotganligining omilidir. Jinoyatlarning aksariyati, darsdan so'ng bo'sh yurgan, ota-onalarning nazoratsiz qolgan, o'smirlar tomonidan sodir etilganligi ma'lum bo'ldi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan giyohvandlik bilan bog'liq sodir etilayotgan jinoyatlar Jizzax, Andijon, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida 1ga, Toshkent viloyatida 5dan 11ga, Samarqandda 4dan 8ga, Farg'ona va Surxondaryoda 1dan 4ga, Xorazmda 2dan 5ga, Respublikamizda esa, 36dan 45ga ko'tarilgan. Oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida giyohvandlik bilan sodir etilayotgan jinoyatlar soni o'tgan yillar mobaynida 622 dan 589 ga kamaygan bo'lsada, Toshkent viloyatida 55 dan 67 ga, Sirdaryoda 5 dan 7 ga, Navoiyda 9 dan 17ga, Farg'onada 75dan 82ga, Surxondaryoda 5dan 9ga oshib ketgan. Giyohvandlik oqibatida sodir etilayotgan jinoyatlar Samarqand, Toshkent va Toshkent viloyatida, Xorazmda ko'payib ketgan.

Giyohvandlik „narkomaniya“ yunoncha , narke-karaxlik hamda maniya –telbalik,jahl, shodhurramlik degan ma’noni bildiradi. Narkotik va narkotik ta’siriga ega bo’lgan moddalarni doimo qabul qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik hisoblanadi. Giyohvandlikda organizmda chuqur o’zgarishlar sodir bo’ladi. Kasallik asta sekin rivojlanib boradi. Giyohvand moddalar dastlab tushkun kayfiyatdan , vaqti chog’lik, hotirjamlik hissini uyg’otib kayf qilganligi sababli isemol qilinadi bora-bora kasallikka aylanadi.

Giyohvandlikning tarixi juda qadim zamonlardan boshlanganligi haqida malumotlar bor. Opiy bundan 600 yil muqaddam qo’llanilgan , uning uhlatuvchilik ta’siri eramizdan avvalgi 18 asrda o’rta dengiz halqlariga ma’lum bo’lgan. Eramizdan oldin yashagan tabobatning otasi Gipokrat opiyini kasallarni davolash maqsadida ishlatgan.

Eramizdan avvalgi 4 asrda Aleksandr Makedoniskiy ko’knori o’simligini Janubiy Osiyoga keltirgan. Opiydan tayyorlangan eritma Laudanumon deb nomlangan . bu ritma yo’tal, uchburuq, uyqusizlik, og’riq, ozish ketish, quvvatsizlikda qo’llanilgan. 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab giyohvand pereparatlar murakkab jarrohlik ishlarida qo’llangan. Jarrohlik operatsiyasidan so’ng bemor og’rig’ini qoldirish uchun opiy berilgan . kuchli ta’sir etuvchi antibiotiklar topilgunga qadar ichburug’ bilan og’rikan bemorlarga opiy berib davolaganlar.

Giyohvandlikni ortib borishi munosabati bilan davolash muassasalarini giyohvand moddalar bilan ta’minlash borgan sari kamayib bormoqda. 19 boshlarida Germaniyada Fridirix Sertyuner va Arman Segen birinchi marotaba morfiy preparatini oladilar. Morfiy uhlatuvchilik hususiyatiga ega.

19 asrning 30 yillarida ikkinchi pereporat opiy –kodein olinadi. Bu pereparat og’riq qoldish hususiyatigaega . vaqt o’tishi bilan opiy va uning pereparatlari Evropada keng tarqala boshladi.

Osiyo mamlakatlari Iroq, Pokiston,Hindiston , Misr va boshqalar nasha chekish opiy qabul qilish keng tarqalmoqda. Keyinchalik opiy qabul qilish keng tarqalmoqda. Keyinchalik opiydan heroin ajratib olindi. Heroin

opiyga qaraganda 48 marotaba kuchli. Ko’pgina kapitalistik mamlakatlar giyohvand moddalarni tabobatda qo’llash o’rniga uni qimmatga sotishni afzal ko’radilar. Giyohvand moddalardan tushayotgan juda katta pullar shu davlatning katta lavozimidagi kishilarni ham qiziqitirmay qolmaydi.

Orta Osiyoda ham nasha chekish, giyohvand modda ko’knori istemol qilish keng tarqalgan edi. Sobiq sovet davrida giyohvandlikda birinchi o’rinni Tojikiston, ikkinchi o’rinni Gruzya , uchichi o’rinni O’zbekiston egallar edi.


20 asrda giyohvand moddalarni iste’mol qilish , uni sotish tez rivojlanib keti. 1976 yil mart oyida Meksika politsiyasi AQSH chegarasi yaqinida 12,5 mln dollarlik 39 tonna marihuana qo’lga olingan. 1974 yilda yonida sotish yoki iste’mol bilan shug’ullangan 400 mingdan ortiq yosh yigitlar qamoqqa olingan. Shvetsiyada 18 yoshli o’smirlarning har 100 tasidan 26 tasigiyohvand modda istemol qilar ekan . AQSHdagi giyohvandlarning 49200 tasi heroin qabulqilar ekan . Yaponiyada so’ngi 7 yil ichida

narkomanlarning yoshlar orasida 10 marta ko'paydi. Geroin va uning xom ashyolarini ishlab chiqishda Tailand , Birma , Laos mashhur „uch burchak“ hisoblanadi. Pokiston , Afg'oniston ,Eron mashhur „oltin yarim oy “hisoblanadi. Giyohvand moddalarga o'rganib qolish yoshlar , o'smirlar orasida ko'p uchramoqda. Endi O'rta Osiyo mamlakatlariga kelsak , narkotik moddalarni ya'ni , opiy yetishtirishning soni keyingi yillarda ko'payganligi va shuning uchun narkomanlarning soni ko'payganligi sir emas.

Giyohvand moddalar bilan shug'ullanish va tarqatish borasida Afg'oniston asosiy o'rinni egallamoqda. Dunyoda yetishtirilayotgan ko'knorilarning 70 foizi shu mamlakatga tegishlidir. Afg'onisto yiliga 8 ming tonna ko'knori yetishtiradi va sotadi. Afg'onistonda yetishtiriladigan giyohvand moddalarni Tojikiston va O'zbekiston orqali Rossiya undan so'ng butun Evropa bo'ylab tarqaldi.

Bunday ishga qo'l urganlar giyohvand moddalar qora dori marixuanna, gashishlar,odam bolasining , insoniyatni , jamiyatni oilani vayron qilishini ko'ra bila turib ham ayrim kimsalar qonunbuzarlik , sharmandalik yo'llaridan qaytmay turib turli yashirin yo'llar bilan foydalanib ish yuritmoqdalar. So'gi yillarda yil sarhisobi bo'yicha oldingi yili Surhondaryo , Tojikiston bojbonalarida 1000 kg kelasi yil esa yanvar oyining oxirida bu ko'rsatkich 800kgni tashkil etdi bu esa anchagina havotirga sabab bo'ladigan xolat.

Surhondaryo viloyatida yiliga giyohvandlik bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar soni 300,400 ni tashkil etmoqda. Ulardan qo'lga tushgan giyohvand moddalar 90 , 100 kg ni tashkil etmoqda. Har yili „qora dori “ operatsiyasi o'tkaziladi.



Ma'naviy salomatlik

Salomatlik bu inson organizimining sog'lig'I emas balki uning sog'lom muhiti hamdir. Inson tug'ulibdiki uning salomatligi birinchi o'rinda tursa uning ma'naviy salomatligi undan ham muhim o'rin tutadi. Inson soglom bo'lsa ham agar ma'naviyat oqsalansa bu insonni inqiroz qarshi oladi . a Aksincha bo'lsa insonni ma'naviy kuchi ta'sirlarga qarshi chiqib yuksaklikka eltadi.Inson salomatligi – uning tug'ma yoki hayoti davomida ortirilgan biologik va ijtimoiy ta'sirlar uyg'unlashgan holati bo'lsa , kasallik esa shu uyg'unlik holatining buzulishidir.

Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat havfsizligi , uning milliy manfaatlarini , sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy hatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin . bu dunyoda tabiatda ham , jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerda bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi.

Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, etiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy , g'oyaviy va infarmatsion hujjatlarni nazarda tutmaslik kerak.

Lo'nda qilib aytganda , bunday mafkuraviy hurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urushini, ulardan bizni butunlay uzub tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini , o'ylaymanki , yurtimizda yashaydigan sog'lom fikirli har bir odam yaxshi tushunadi.

Bugungi global rivojlanish davrida global muammolar ham o'ziga yarasha insoniyat va jamiyat oldida ko'ndalang bo'lib rivojlanishni bir tekkisda ketishiga to'sqinlikqilmoqda.bir qarashda arziyasdek tuyilgan muammolar oxir oqibat butun jahon muammosiga aylanmoqda.Xozirgi kundagi muammolarni kelib chiqishiga shu muammoga loqayd qaraganimizdir.Loqaydlik esa jamiyatni intilayotgan ezgu maqsadidan adashtiradi.

Yurtboshimiz o'zining „Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida” loqaydlikka shunday ta'rif beradilar.Azaldan ma'lumki , beparvo odam dushmanidan ham xavliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham u ichingizda yurib , sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyatlar yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib , quydagi haqqoniy fikirlarni bayon etgan : „ Dushmanlardan qo'rqma nari borsa seni o'ldiradi, Do'stlaringdan qo'rqma-nari borsa senga xiyonat qilishadi. Befarq odamlardan qo'rq ular seni o'ldirmaydilar ham , sotmaydilar ham , faqat ularnin befarq turishlaridan er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi”.

Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni nunib-o'sib kelayotgan yoshlarimizning ongiga singdirishimiz ularni hayot sinovlariga bardoshli qilib tayorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagimuqaddas burchimizdir.

Barchamizga ayon bo'lishi lozimki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukum sursa , eng dolzarb masalalar o'zbilarmonchilikka tashlab qo'yilsa , o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik , yuksak aql-idrok va tafakkur hukumron bo'lsa , shu yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.


Ta'bir joiz bo'lsa , aytish mumkinkib, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham qudratli kuchga ega. Agar biz ahil bo'lsak , el-yurt manfati yo'lida bir tanu jon bo'lib yashasak , o'zimizdan sotqin chiqmasa , o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Ma'naviyatni shakillantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim hayotiy omil –bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bo'g'liqdir.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash , sharqona hayot falsafasi. Shundoq ekan bizning yurtimizgagina hos bo'lgan o'chmas va o'lmas qadiryatlarimiz bor buni bir bolaga yetti mahlla ota-ona degan ajoyib keng ma'noli oltinga teng naqillarimiz mavjud. Buni tahlil etadigan bo'lsak, biz nafaqat o'zimizni yurish turishimiz haqida balki qo'ni-qo'shni, qavmi-qarindoshlarimizni ham fikr va mulohazalariga ham quloq tutishimiz bunga esa hech e'tiroz bildirmashimiz kerak. Bugun biz shu jamiyatning o'sib kelayotgan yosh vakilimiz ertaga esa bizning ovozimiz hal qiluvchi kuchga aylanadi.

Komil inson bo'lib yetishish uchun bizning ma'naviyatimiz mustahkam, fikrlarimiz teran,o'tkir zehn sohibi bo'lishimiz darkor. Shudagina biz yurt kelajagi uchunkerakli tayanch bo'la olamiz. Bu yo'lda bizga saboq berayotgan ustoz va murabbiylarimizni chuqr xurmat qilishimiz o'gitlariga hamisha quloq solib hayotga tadbiq qilishimiz lozim. Ulug'larimiz aytganidek, agar dunyo imorotlari ichida eng ulug'I maktab bo'lsa , kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir. Bu buyuk va bag'ri keng oliy janob insonlar bizga na'faqat ta'lim balki tarbiyani ham birga ongimizga singdiradilar. Bizning ilk saboqlarimizdan to mukammal fanlarni o'zlashtirishimizda bizga qo'llaridan kelganicha bilim va ko'nikmalarini ayamaydilar. Bizlar ham ularni zo'r qiziqish bilan o'rganamiz. Biz har doim ham bu bilimlarni chuqr o'zlashtirishga harkat qilmaymiz, go'yo biz tanlagan maqsad qilgan kasb, hunarga aloqsai yo'qdek.

Biz avditoryada o'tirar ekanmiz biz uchun kelajakda kerak bo'ladigan fikr bilml ar ulashiladi. Har doim ham bu ma'lumotlarni sergaklik bilan qarshi olmaymiz. Bu esa bora-bora zerikishga olib keladi bu o'z o'rnida boshqalarni fikrini chalg'itishga „hizmat qiladi”. Mashxur psiholog Jim Ron takidlaganidek „ Taraqqiy etishimizga to'sqinlik qiladigan narsa bu- bizga kerakli malumotlar berilayotgan auditoriyada o'zimiz bo'la turib fikr hayollarimiz bizdan olislarda bo'lishidir” deb ta'kitlaganlar. Bu fikr mushohada qilishga arziydigan fikr bu to'g'rida sal o'ylansak bazi illiatlarni oldini olgan bo'larmidik...



Rangtasvir tarixidan

Rangtasvir juda qadimiy san`at. Uning asoslari qoyadagi tasvirlardan boshlanadi. Antik davr rassomlari rangtasvir asarlarida juda katta ta`sirchanlikka erisha olishgan, bu naturaga katta diqqat e`tibor qarashdan, shu bilan birga rangtasvir texnologiyasiga kiritilgan yangiliklar bilan bog`liq bo`lgan.

O`rta asrlarda turli janrlardagi kartinalarning yaratilishi rangtasvir tarixini boyitdi. Keyingi yuz yilliklardagi turli oqim va yo`nalishlarda ijod qiluvchi rassomlarning ijodiy izlanishlari juda ko`plagan yangi rangtasvir oqimlarini (realizmdan abstraksionizmga) vujudga keltirdi.

Kuyi paleolit davrida yashagan odamlarning ijodida ularning hayvonlar dunyosi, tabiat haqidagi tasavvurlari o`z aksini topgan. Bu tasvirlarda asosan ov manzaralari aks etgan. Qoyalarda faqat rangtasvir asarlarigina emas, balki grafik va bo`rtma qoya tasvirlari ham saqlanib qolgan. Ibtidoiy davrlardagi qoya rasmlari o`zining mukammalligi, hayvonlar anatomiyasi, harakatining, jun fakturasining aniq berilishi va obrazli ta`sirchanligi bilan bizni hozirgi davrgacha lol qoldirib kelmoqda. Tasvirlar ma`naviy madaniyatimizni avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Antik davrlarda rassom dunyoni qanday ko`rsa o`shanday tasvirlashga harakat qilgan. Yorug`soya printsiplari, perspektiva elementlari, hajmli-fazoviy rangtasvirning paydo bo`lishi shular bilan bog`liq bo`lgan. Yunon rassomlari inson tanasining tuzilishi, proporsiyasi, harakat plastikasini o`rganishgan. Rassomlar freskalardagi yunon vazalarida insonning xaqiqiy realistik tasvirlarini tasvirlashga erishishgan.

Rangtasvir asarlarida borliqni tasvirlashning yangi imkoniyatlari paydo bo`ldi. Turar joylar, makbaralar, ibodatxonalar va boshqa inshootlar rangtasvir asarlari bilan bezatilgan. U arxitektura va xaykaltaroshlik bilan badiiy, kompozitsiyani tashkil etgan.

O`rta asr rangtasviri diniy mazmunga ega bo`lgan roman davri va asosan gotika davrida san`at sobor uchun xizmat qilgan, shuning uchun ham rangtasvir asarlari bilan faqat soborlar bezatilgan.

Undagi ranglarning jarangdorligi, asosan lokal ranglar ishlatilishi, konturlarining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Kartina va freskalarning foni shartli, neytral yoki tillarang bo'lgan.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish,

o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgohli turlarga bo'linadi.

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi

Mavzuli kompozitsiya maishiy janrdagi

Kompozitsiya – lotincha << compios >> soʻzidan olingan boʻlib, <<tuzmoq>>, <<loylashtirmoq>>, <<yaratmoq>> degam maʼnoi bildiradi. Kompozitsiya sanʼtining barcha turlariga hosdir. << Kompozitsiya >> tushunchasini jiatlari xaqida gapirganda shuni aytish mumkinki, u turli sanʼatlarning oʻziga hos hususiyatlaridan kelib chiqib, har birida uning mazmuni ishlatilish darajasi xam turlicha boʻladi.

Kompozitsiya oʻquv predmetining vazifalari mavjuddir. Kompozitsiya oʻquv predmeti oʻz oldiga: tasviriy sanʼat kompozitsiyasi boʻyicha bilim berish, ijodkorlikni tarbiyalash. Ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish, bilish aktivligini oshirishni maqsad qilib qoʻyadi. Bu maqsadni muvaffaqiyatli amalgam oshirishyoʻlida talabalar bilan oʻqituvchi raxbarligida bir qator oʻquv – tarbiyaviy ishlarini olib borish koʻzda tutiladi.

Mavzuli rangtasvir eng avvalo, tasviriy sanʼatning maishiy kompozitsiya maishiy, tarixiy, batal (xarbiy) va mifalogik janri bilan bogʻlanadi. Bunday kartinalarni

<< janrli kompozitsiyasi>> deb ham yuritiladi. Janrli kartina kompozitsiyasi gʻoyaviy fikr bilan tasvirlanadi. Xar qanday << savodni >> joylashtirishga ega kartina xam, biror gʻoyani chuqur xal etmasa, u sanʼat asari boʻla olmaydi.

”Maishiy janr – kundalik turmush tarzida uchraydigan xodisalarni oʻzida aks ettirilgan tasviriy sanʼatining bir koʻrinishidir. Kompozitsiya ustida ishlashning barcha jarayonlari bu gʻoyaviy fikrni boyitish, xar tomonlama qayta qayta – ishlash va raelizatsiya qilish jarayoni isoblanadi.

Mashur rassomlarning aytishicha insonni toʻlqinlantiradigan va tinchlik bermaydigan qandaydir bir gʻoya tugʻulgandagina darxol eskiz qilinadi.

Kompozitsiya ustida ishlaganda barcha jarayonlari xaqiqiy qalban boʻlishi kerak soxta boʻlmasligi soxta vazifalardan kelib chiqmasligi va kartinani qandaydir bir mazmuniy geometrik sxemalar asosida qurish kerak. Bunda figuralarni diogonal, aylana, uchburchak asosida qurish va xakozolarni nazarda tutilmoqda. Toki qiziqarli mavzuni topmasdan turib kompozitsiya bilan shigʻullanish yaramaydi.

Mavzu deganda rassom oʻylagan, oʻzining yaratilajak asarida ifodalamoqchi boʻlgan xissiyot va fikrlar gʻoyalar yigʻindisi tushuniladi.

Mavzu albatta chuqur bilim doirasida, xayotiy voqealar va tajriba asosida tugʻulishi kerak, mavzu << dolzarblik >> ni roʻkach qilib, majbiruy va soxta, notabiiy holda tanlanmaydi. Agarki rassom odamlarga aytiladigan ichki yangilik, qandaydir voqeani zarurva ahamyatli toomonini koʻrsatmasa va oʻz qobiliyatiga qarab mavzuga kirishmasa, u asar yaratilmaydi.

Kompozitsiyada << gʻoya >> << mavzu >> tushunchasi baʼzan aniq holda yoritilmasligi ham mumkin.

Agarki mavzu topilib va rassom unga qiziqqan bo'lsa, tarixiy, xujjatli portret yoki manzara materiallarini o'rnatish uchun astoydil ish boshlanadi. Bunday materiallarni xar tomonlama chuqur o'rganish bilan gina ijodiy tasavvurda kartina mavzusi yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Giyohvandlik va salomatlik asari tahlili

Bu mavzuda juda ko'p asarlar, tasviriy sa'naning xar bir yo'nalishida ishlangan. Bundan maqsad hamma rassomlarda bir ya'ni bu muommoni rassomlar ko'zi bilan ko'rib ularning qarashlari bilan o'rtoqlashishdir. Bilamizki rassomlar ijod ahli oddiy odamlarga nisbatan qarashlari bilan farq qiladi. Men ham bu asarni yaratishda bugungi kun muammolarini ifoda etishga o'zimning qarashlarimni shu asarda bayon etishga xarakat qildim.

Nimani aks ettirish haqida uzoq o'ylab do'stlarimni qarashlari bu mavzu yuzasidan nimalarni bilishlarini o'rgandim. Menda turli g'oyalar tug'uldi shulardan eng saralarini uyg'unlashtishga urundim. Men uchun qadirli bo'lgan umr, vaqt, yoshlik kabi ulug' qadirlashga arziydigan va bazan esa biz qadrlamaydigan g'animatlarga boshqacha ifoda berishga urundim.

Birinch ko'rinishga jamiyatimizda eng ko'p sonli vakillarini ya'ni 18, 25 yoshdagi yoshlarimizni ifodaladim. Xozirgi kunda bu yoshdagi yoshlarimiz tomonidan erishilayotgan yutuqlarimiz boshqa yoshdagilarga qaraganda anchagina ko'proqni tashkil etadi. Ming afsuski bugungi kunda ajal og'ushida umrining eng qaynoq damlarini o'tkazayotganlar ham shu yosh vakillaridir. Men talaba ko'rinishida ifodalamoqchi bo'lgan yigitni ikki yo'lni o'rtasida aks ettirdim.

Umrimiz mobaynida nimalargadir erishamiz nimalarnidir boy beramiz, men shuni ifodasi sifatida hayot yo'lini ikkinchi planda zinapoya ko'rishida ko'rsatdim. Biz oilada yetarlicha tarbiya etiborga ega bo'lamiz. Shu tarbiyalanganligimizni jamiyatda atrofdagilarimizni bizga berayotgan baholaridan o'z baholarimizni olamiz. Yaxshi tarbiyali inson vaqtini, yoshlikni g'animat bilib o'z maqsadi yo'lida tinmay izlanadi. Bu izlanishlar o'z mevasini kelajakda berishiga albatta ishonadi. Ishonch bilan oldiga odimlaydi.

Ishonch bizni aql bovar qilmas cho'qqilarga yetishtiradi. Hayot zinapoyalaridan ko'tarilib o'z yutuqlarimizdan sarmast bo'ladi. Lekin afsuski ma'naviy qashoq insonlar o'z farzandlariga yetalicha etibor qarata olmaydi buning natijasida ko'plab yoshlarimiz inqroz yo'llaridan

odimlaydi. Bu esa bora-bora muthish xatolarga aylanadi. Qorong'ulik atrofida aylanib adashib qoladi. Uni o'z saltanatiga qorong'ulik totadi, qorong'ulik hayot zinalarini yuqoriga emas aksisinch qayig qyataklaydi. Xar bir zinaga qadam qo'yganida hayotidagi eng aziz narsalarini yo'qotib boradi.

Bugunning eng yorqin kunlaridan baxramand bo'lishimiz kerak bu uchun bugungi kundan hayotning go'zalligidan baxramand bo'lish lozim. Shuning uchun asarimizda yorqin ranglardan foydalandim. Asosan oq va ko'kranglardan foydalanib yorug'likni ko'rsatdim zero bu olam har doim ham qora bo'lmaydi. Uni yaratish o'zimizning qo'limizda . Zinapoyalar borib tog'larga tutashadi bu tog'lar ustida quyosh mehrli nur taratib turadi. Buning ma'nosi esa hayotda har doim ham yorug'likka intilish kerak degan ma'noga ega. Kabutarlar tinchlik ramzi sanalib u faqat osoyishta yurtning tepasida uchadi.

Asarning pastgi qismida ham zinalar mavjud bu zinalar pastga yo'nalgan va bu qisqa masofaga boradi, dars ketgan bo'lib buniyam o'z ma'nosi bor. Qisqa masofa bu umr yo'lining qisqaligi bo'lib giyohvandlik bilan bog'liq insonlarning umir yo'li uzun bo'lmasligini ifodasidir. Dars ketishi esa umrini, organizmga dars ketishi bilan qiyoslash mumkin .

Ilmoqli shipritsni domiga tortuvchi sifatida ko'rinishga ega bo'lib bunda barchani o'ziga jalb qilayotganini bildiradi. Bunda xo'rak sifatida odamlardan foydalanadi . Bu odamlar insonni o'zlarini yo'liga solish uchun farishta ko'rinishida bo'ladi. Bu „farishtalar“ pulni deb o'zligidan voz kechgan . Bu odalarga qanday ta'rif berishniyam bilmaysan lekin O'tkir Hoshimovning shunday so'zlari bor „olimlar bugingi kunda odamsimon maymunlarni yo'q bo'lib ketyapdi deb olamga jar solmoqdalar. Ular hechham havotirlanmasaham bo'ladi chunki maymunsimon odamlar ko'paymoqda. Bu ta'rifda men ma'naviyati oqsoq razillikka jon deb ko'nadigan „farishtalarga“ atalgan chiroyli so'zlar deb bildim.

Xulosa

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimianing jahon hamjamiyatidagi obro'-etibori avvalombor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir. biz buday o'tkir haqiqatni hechqachon unutmasligimiz kerak.

ISLOM KARIMOV

Bugungi mavzu yuzasidan men shu fikr bilan xulosa qilmoqchiman. Inson bu dunyoga kelibdimi u hech qachon mehrga to'yimas ekan . Mehr-muhabbat insonni har qanday qabihlikdan

qaytaradi. Shunday ekan mehrimiz va yordamimizi bizga uzatilgan qo'llarga nisbatan rad javobi bilan qaytarmaylik.

Tarixda bir sayyoh yashagan ekan. U umri mobaynida ko'plab mamlakatlar kezib bu mamlakatlarga o'z bahosini berib bu malumotlarni tarix sahifalariga joylar ekan. Sayyoh dastlab mamlakat bozorlarini keyin esa mamlakatning mozorlarini aylanar ekan . Bozorlari obod mamlakatlarni mozorlari esa achinarli ko'rinishga ega bo'lgan davlatga shunday ta'rif beradi. Bu mamlakat buguni bilan yashaydi ertasi haqida ummuman o'ylamaydi. Aksincha bo'lsa bugunni qadriga yetmaydi bugundan foydalana olmaydi deb ta'rif beradi.

Kunlardan bir kun sayyoh bir mamlakatga kelib qoladi . bozoriga kirsam hamma shod, baxtiyor, mulozamatli mehrga to'la so'zlar biln bir- birlarini siylashar edi. Qiziqib mozoriga bordi, qarasa ajoyib holat. Qabirtoshlaridagi bitiklardan taajjubga tushdi. Unda shunday bitiklar mavjud edi, falonchi ettmish yil umir ko'rdi, o'n besh yil yashadi . yana birida esa falonchi ellik yil umr ko'rdi, yigirma yil yashadi. Quyida esa falonchi to'hson yil umr ko'rdi ikki yil yashadi. Bu bitiklarni har chana urinsin sayyoh ma'nosini tushunmadi. Tezda shu yaqindagi oqsoqollarga yuzlandi, bu ne holki ellik yil umr ko'rib yigirma yil yashasa. Shunda oqsaqollardan biri , bu umr YARATGANning bizga bergan umridir, yashagan yili esa shu insonning vafotidan so'ng umri mobaynida qilgan yaxshiliklari, savoblari, baxtiyor yashagan kunlarining hisobidir deb sayyohga tushuntiribdi.

Men rivoyat bilan sizlarni qimmatli vaqtingizni olmoqchi emasman, aksincha sizga tilagim shu siz dunyoda shunday yashanki umringizdan yashaganingizdan ziyoda bo'lsin...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. prezident I A Karimov ma`ruzasi. “ Xalq so`zi ” gazetasi 2013 yil 7-dekabrdagi nutqi**
- 1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998 yil**
- 2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 yil.**
- 4. Apuxtin O. Tasviriy san'at asoslari. T. 1978 yil.**
- 5.Amanullayev. A. Xomaki tasvirlar. Nam. 1992 yil.**
- 6. R.Hudayberganov. “Rangshunoslik asoslari”
T.G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi 2006 y.**
- 7. Andijon dalat universiteti Rang tasvir maruzalar matni 2013 yil.**